



## MINTAQADA IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISH YO'LLAR (XORAZM VILOYATI KESIMIDA)

Sapayeva Nazokat Shavkatovna UrDU Magistratura bo'limi

Iqtisodiyot(tamoqlar va sohalar) mutaxassisligi 2-bosqich 211-guruh talabasi

*E-mail adres:* [snazokat086@gmail.com](mailto:snazokat086@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Bu maqola mintaqaga tushunchasi yoritilishi bilan birga Xorazm viloyati haqida ham ma'lumot berildi. Shuningdek, Xorazm viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda viloyat iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish yo'llari aniqlandi. Tahlil jarayonida makroiqtisodiy tahlil usulidan foydalanildi.

*Kalit so'zlar:* mintaqqa, Xorazm viloyati, YaHM (Yalpi Hududiy Mahsulot), iqtisodiy o'sish, rag'batlantirish, eksport va import.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье, наряду с освещением понятия региона, также была представлена информация о Хорезмской области. Также были проанализированы макроэкономические показатели Хорезмской области. При этом были определены пути стимулирования экономического роста региона. В процессе анализа использовался метод макроэкономического анализа.

### ANNOTATION

This article, along with the coverage of the concept of the region, also provided information about the Khorezm region. Macroeconomic indicators of Khorezm region were also analyzed. At the same time, ways to stimulate the economic growth of the region were determined. In the process of analysis, the method of macroeconomic analysis was used.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yo'llarini aniqlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shunga qaramasdan mamlakat va uning ba'zi viloyatlarida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish jarayoniga to'siq bo'layotgan salbiy holatlar mavjud bo'lib, ularni hal qilib yechim topish bugungi kunning dolzarb masalaridan bo'lib kelmoqda.



O'zi o'zidan ma'lumki, mintaqqa deganda asosan ma'lum chegara bilan chegaralangan hudud ya'ni viloyat nazarda tutiladi.

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasi hududining 4,2% ini tashkil etadi. Shunga qaramasdan mintaqqa mamlakat aholisining eng zich joylashgan hududidir. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasidan olingan ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyati YaHM 31 963,1 mlrd. so'mni, respublika YaIMdagi ulushi 3,6 %ni tashkil qilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 18 325,8 mlrd. so'mni (respublikadagi sanoat mahsulotlarining 3,3% ini) tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,1% ni tashkil etdi. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 11 466,1 mlrd. so'mlik xalq iste'mol mollari (respublikada xalq iste'mol mahsulotlarining 5,8%) ishlab chiqarilib, 2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 125,5 %ni tashkil etdi. Raqamli iqtisodiyotni tashkil etish sharoitida Xorazm mintaqasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022 yil III chorakda 13 136,2 mlrd so'mlik tashkil etib, o'sish suratlari 115,9 %ga oshgan, Respublikadagi ulushi 3,4%ni (9-o'rinni) tashkil etadi. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 6,8 mln. so'mni (7-o'rinni), o'sish suratlari 114,0% ni tashkil etdi. YaHM tarkibidagi sanoat ulushi 14,6%ni tashkil etdi va 2021 yil III chorakka nisbatan 3,2 punktga ortgan.

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish – bu moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, tabiiy monopolistlar mahsulotlari (xizmatlari) uchun tariflar o'sishini cheklash, shuningdek, iqtisodiyotni rag'batlantirish vositasi sifatida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mamlakat iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish chorasıdır. Nega iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish zarur degan savolga quyidagi javob misol bo'la oladi? Iqtisodiyot doimo yuqori iqtisodiy o'sishga erishishishni maqsad qiladi shuning uchun u doimo qo'llab-quvvatlanib turiladi chunki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun avvalambor yuqori turmush darajasiga, to'la bandlikka va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish kerak.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har qanday mintaqada iqtisodiy o'sish uch xil sharoitda rag'batlantirilishi mumkin. Birinchidan, iqtisodiyot iqtisodiy resurslarning o'sishini boshdan kechirayotganda. Ikkinchidan, iqtisodiyotda hosildorlik oshib borayotganida. Uchinchidan, iqtisodiyotda



texnologik taraqqiyot mavjud bo'lganda. Hukumat resurslarning har qanday shaklda tugashining oldini olishi va har qanday yangi manbalarni kashf etish orqali mavjud manbalarni qo'shish choralarini ko'rishi kerakligini ta'kidladi. Bundan tashqari, samaradorlikni oshirish uchun hukumat malaka oshirish va shuning uchun unumdorlikni oshirish uchun ta'lif va o'qitish xarajatlarini o'z ichiga olgan ta'minot siyosatini amalga oshirishi lozim. Shu jumladan, hukumat ta'minot siyosatining bir qismi bo'lgan texnologik taraqqiyotni amalga oshirish uchun tadqiqot va ishlanmalarni sarflashi kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, quyidagilar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi.

- Jamiyat, hukumat va biznes bir o'rinda bo'lishi;
- Muassasalarni ya'ni bunga ta'lif, kasalxonalar va boshqalarni shaffof, mas'uliyatlari va davlatda o'rnatilgan qonun-qoidalarda izchil bo'lishini ta'minlash;
- Barkamol, insonparvar davlat xizmatiga intilish;
- Boy odamlarni nomutanosib va yuqori soliq to'lashi;
- Infratuzilma, tadqiqot va ta'limga sarmoya kiritishni yo'lga qo'yish;
- Bozorlarni tartibga solish uchun raqobatbardosh tizim ishlab chiqish;
- Pensiya va nogironligi mavjud bo'lgan aholilarni nafaqalarini moliyalashtirish;
- Zarur bo'lganda bozorlarni qo'llab-quvvatlash;
- Markaziy banklar apolitik bo'lishi kerak, yuksalish davrida foiz stavkalarini ko'tarib, inqiroz paytida ularni pasaytirish;
- Sudlar adolatli bo'lishi;
- Inson kapitaliga investitsiyalar (ta'lif, sog'liqni saqlash) kiritish orqali malakali yetuk kadrlarni qo'llab-quvvatlash;
- Ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish orqali innovatsiya va novatsiyalarni ko'paytirish;
- Erkin savdo zonalarini tashkil etish;
- Qonuniy ish topa oladigan odamlarning immigratsiyasini osonlashtirish;
- Yuridik va soddarroq korporativ va shaxsiy soliqlarni joriy etish ba'zilarini bekor qilish;
- Kambag'allikka qarshi kurashish;



- Yaxshiroq jamoat transportlarini joriy etish;
- Cheklarni naqd qilish to'lovlarini bartaraf qilish uchun debet kartalari bilan bepul hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- Eng kam ish haqini ko'tarish, shunda odamlar hech bo'limganda qarz olmasdan maoshini to'lashgacha yashashi mumkin va boshqalar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tadqiqot natijalariga asosan Xorazm viloyatida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Tahlil shuni ko'rsatadiki Xorazm viloyatida qayta ishlash sanoatida, mashinasozlik, qurilish materiallari, shisha va chinni buyumlar, oziq-ovqat, farmatsevtika, tibbiyot va boshqa tarzoqlarida yuqori darajada qayta ishlangan tayyormahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

2. Sanoatning iqtisodiy o'sishini oshirishga asosan Xorazm viloyati zamonaviy texnologiyalar asosida yetishtirilayotgan va yuqori sifati bilan ajralib turadigan meva-sabzavotlarni qayta ishlash uchun ulkan resurs bazasi mavjudligi, boshqa hududlarga qaraganda, muayyan ustunliklarga ega. Bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hajmini ko'paytirish hisobidan viloyatning eksport salohiyatini oshirish va bu orqali iqtisodiy o'sishga imkoniyat yaratib beradi. Bu borada boy xomashyo bazasi, inson kapitalining yuqori darjasini va ishchi kuchining nisbatan arzonligidan foydalanish mumkin.

3. Agrar sektorming iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish imkoniyatlarini hisobga olsak, viloyatning tuproq-iqlim sharoitlari quyidagi qayta ishlash asosida import o'rnni bosadigan va eksportbop mahsulotlar yetishtirish va ishlab chiqarish imkonini beradi. Grechka (uning gullaydigan yuqori qismidan tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan rutin olish mumkin), grechka va bug'doy uni aralashmasidan yaponcha soba va italyancha pitsotskeri taomlari uchun ugra, makaron olinadi, tibbiyotda foydalaniladigan priparka va mz tayyorlash mumkin, rapsa (undan dizel yoqilg'isi, moy va boshqalar ishlab chiqarish mumkin), shrot (soya va rapsa shrotidan zarur qo'shimcha sifatida foydalangan holda, pechenye, qandolatchilik va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi, ularni Eronga eksport qilish imkoniyati mavjud), topinambur (undan farmatsevtika sanoati, tsellyuloza-qog'oz tarmog'i,



spirit va biogas ishlab chiqarish va boshqa sohalarda foydalilaniladi); batakror ta'mga ega shirin-shakar qovun va uzumlar. Yuqorida qayd etilgan mahsulotlarni chuqur qayta ishlash minqata iqtisodiyotida o'sish imkonini beradi.

4. Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini kengaytirish va Xorazm viloyati iqtisodiyotida o'sishni rag'batlantirish uchun servis-tayyor markazlarini tashkil etish taklif qilinadi. Mazkur organ mintaqaga agrosanoat kompleksining mavjud qiyosiy ustunliklarini ro'yobga chiqarishda muhim rol o'ylashi lozim.

5. Turizm xizmatlarini iqtisodiy o'sishdagi xissasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, sayyoohlarni transport, mehmonxona va boshqa turar-joylar bilan ta'minlash, ularga avtomobilarni ijara ga berish va boshqa xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida mahalliy hokimiyat organlarining boshqaruvi tizimini takomillashtirish. Ekotexnologik xo'jaliklar sifatida tabiiy-rekreatsion tumonlar hududida mehmonxona kompaniyalari va umumiy ovqatlanish korxonalarini tashkil etishga ko'maklashish. Mazkur sohani rivojlantirish uchun xususiy sayyoohlilik agentliklarini va mintaqaning tarixiy joylari to'g'risida axborot bazasini tashkil etish, mahalliy va xalqaro turizm sohasida faoliyat ko'rsatadigan tashkilotlar ishtirokida seminarlar o'tkazish orali rekreatsion hududlar aholisining akologik dunyoqarashini shakllantirish zarur.

6. Ilmiy va ta'lim muassasalari tomonidan yangi sayyoohlilik mahsulotlari va ekologik qulay tabiiy va tarixiy-madaniy landshaftlardan o'tadigan sayyoohlilik yo'nalishlarini ishlab chiqish uchun o'lkashunoslik sohasidagi tadqiqotlar natijalrini amalda qo'llash mqsadida tashkil etilgan kichik va o'rta biznes subektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash. O'zbekiston va xorijda sayyoohlilik va rekreatsion mintaqasi sifatida Xorazm viloyatining mavqeini yuksaltirishga qaratilgan television va kinomatografiya mahsulotlarini yaratish bilan bog'liq xarajatlarning 1 qismini qoplash maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga kreditlar ajratish zarur.



## REFERENCES

1. M.T.Asqarova, L.F.Amirov, A.A.Islomov, A.R.Yaxshimuratova. Inklyuziv iqtisodiy o'sish. Toshkent-2019.
2. I.O. Yakubov, A.A. Islomov, M.N. Sunnatov. Mintaqaviy iqtisodiyot. Toshkent-2019.
3. Mahalliy va mintaqaviy rivojlanish iqtisodiyoti fanidan o'quv-uslubiy majmua. Guliston Davlat Universiteti. Toshkent-2022.
4. Машина А.А. Стимулирование экономического роста. 2018
5. Проблемы экономического роста и устойчивого развития территорий. Вологда 2020
6. Strategic priorities of the state stimulate sustainable growth of the economy of Uzbekistan. Kholbaev N.B., Kholbaeva S.R.
7. <http://www.gov.uz>.
8. <http://www.stat.uz>
9. <http://www.minecon.uz>